



**LIDERLIK FENOMENINI TAHLIL ETISHNING MAZMUN-MOHIYATI:
ASOSIY IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti

Madaniyat va san'at menejmenti yo'nalishi

2-kurs magisteri Muzaffarova Shahzoda G'ulomjon qizi

Annotatsiya Mazkur maqolada liderlik fenomenining mazmun-mohiyati hamda uning asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda liderlik tushunchasining tarixiy shakllanishi, uning g'arb va sharq ilmiy maktablaridagi talqinlari qiyosiy ravishda ko'rib chiqiladi. Xususan, G'arb nazariyalarida liderlikning karizmatik, transformatsion va emotsional-intellektual jihatlari, shuningdek, vaziyatli va guruh dinamikasi yondashuvlari ilmiy asosda yoritiladi. Sharq tafakkurida esa liderlikning axloqiy-ma'naviy mezonlari, ideal rahbar konsepsiyasi va jamiyat uyg'unligini ta'minlashdagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: liderlik fenomeni, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, transformatsion liderlik, emotsional intellekt, axloqiy yetakchilik, jamoa boshqaruvi, innovatsion fikrlash.

Аннотация В данной статье комплексно анализируется сущность феномена лидерства и его основные социально-психологические особенности. В исследовании рассматривается историческое становление понятия лидерства, а также проводится сравнительный анализ его интерпретаций в западных и восточных научных школах. В частности, освещаются харизматические, трансформационные и эмоционально-интеллектуальные аспекты лидерства в западных теориях, а также ситуационный подход и теория групповой динамики. В восточной философской традиции раскрываются нравственно-духовные критерии лидерства, концепция идеального правителя и его роль в обеспечении общественной гармонии.



Ключевые слова: феномен лидерства, социально-психологические особенности, трансформационное лидерство, эмоциональный интеллект, нравственное лидерство, управление коллективом, инновационное мышление.

Abstract This article provides a comprehensive analysis of the essence of the leadership phenomenon and its main socio-psychological characteristics. The study examines the historical development of the concept of leadership and offers a comparative analysis of its interpretations in Western and Eastern scholarly traditions. In particular, charismatic, transformational, and emotional-intelligence-based approaches in Western theories are discussed, along with situational and group dynamics perspectives. Within Eastern philosophical thought, special attention is given to moral and spiritual criteria of leadership, the concept of the ideal leader, and the role of leadership in maintaining social harmony.

Keywords: leadership phenomenon, socio-psychological characteristics, transformational leadership, emotional intelligence, moral leadership, team management, innovative thinking.

Insoniyat tarixida ijtimoiy hayotni tashkil etish, boshqaruv tizimlarini barpo etish va jamiyat taraqqiyotini ta'minlash jarayonida liderlik fenomeni muhim o'rin tutib kelgan. "Lider" inglizcha "leader" — so'zidan olingan bo'lib "yetakchi, boshliq, rahbar" ma'nolarini anglatadi, mazkur atama nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy, madaniy va san'at sohalarida ham keng qo'llaniladi. ¹Shaxsning boshqalarni ergashtirish qobiliyati, qarorlar qabul qilishdagi faoliyati hamda jamoani umumiy maqsad sari safarbar etish iste'dodi liderlik mohiyatini belgilaydi.

"Fenomen" so'zi — yunoncha *phainomenon* so'zidan olingan bo'lib, "hodisa", "ko'rinish" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun liderlik fenomeni deganda — jamiyat hayotida takrorlanib, kuzatiladigan, ammo har safar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan yetakchilik hodisasi tushuniladi.

¹[https://uz.wikipedia.org/wiki/Liderlik#:~:text=Liderlik%20\(inglizcha:%20leader%20%E2%80%94%20yetakchi,bajarishda%20boshqalarning%20ijtimoiy%20ta%CA%BCsir%20jarayoni.&text=Liderlik%20%D%20bu%20bahsli%20atama,bo%CA%BBlgan%20etakchilik%20va%20norasmiy%20rollar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Liderlik#:~:text=Liderlik%20(inglizcha:%20leader%20%E2%80%94%20yetakchi,bajarishda%20boshqalarning%20ijtimoiy%20ta%CA%BCsir%20jarayoni.&text=Liderlik%20%D%20bu%20bahsli%20atama,bo%CA%BBlgan%20etakchilik%20va%20norasmiy%20rollar)



Liderlik fenomeni — bu faqatgina hokimiyat yoki lavozimga ega bo‘lish emas, balki insonning boshqa odamlarga ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, motivatsiya berish, ilhomlantirish, qaror qabul qilishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va jamoani boshqarish ko‘nikmasidir.

Psixologik jihatdan, liderlik inson shaxsining o‘ziga xos fazilatlari — o‘ziga ishonch, tashabbuskorlik, kommunikativlik, mas’uliyat va empatiya kabi sifatlarda namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy jihatdan, liderlik fenomeni turli sohalarda — siyosatda, iqtisodda, madaniyat va san’atda, ta’limda, sportda yoki oilada ham kuzatiladi. Har bir muhitda lider o‘ziga xos rol o‘ynaydi, lekin mohiyat bir xil: boshqalarni maqsad sari yetaklash.

Liderlik fenomeni insoniyat tarixida ijtimoiy munosabatlarning markazida bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, uning ilmiy-nazariy asoslari turli sivilizatsiya maktablarida turlicha talqin etilgan. G‘arb sotsiologiyasi, psixologiyasi va menejment nazariyalarida liderlik ko‘proq shaxsiy sifatlar va jamoaga ta’sir o‘tkazish mexanizmlari nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Sharq falsafasi va ilmiy maktablarida esa liderlik tushunchasi ko‘proq axloqiy fazilatlar, jamoaviy uyg‘unlik va ma’naviy yetakchilik me’zonlari orqali talqin etilgan.

Ilmiy adabiyotlarda liderlik tushunchasi turlicha talqin qilinadi. M. Veber liderlikni “karizmatik hokimiyat” tushunchasi orqali izohlagan bo‘lib, u liderning shaxsiy jozibasi va noodatiy fazilatlari orqali jamoani ergashtirish qobiliyatini alohida ta’kidlaydi. R. Stogdill esa liderlikni shaxsiy xususiyatlar yig‘indisi emas, balki “vaziyat va shaxs o‘zaro ta’siri” deb biladi. J. Burn transformatsion liderlik nazariyasida haqiqiy lider shunchaki boshqaruvchi emas, balki izdoshlari ongida yangilik uyg‘otuvchi va ularni yuqori maqsadlarga ilhomlantiruvchi shaxs sifatida ko‘riladi. Bu yondashuv bugungi zamonaviy menejment nazariyalarida eng samarali hisoblanadi.

Psixologik nuqtayi nazardan esa K. Levin liderlikni guruh dinamikasi markazida tahlil qilib, har bir liderning samaradorligi jamoa ichki jarayonlarini



boshqarish qobiliyati bilan bog‘liq ekanini ta’kidlagan. Zamonaviy g‘arb tadqiqotlari (masalan, Daniel Goleman) liderlikni emotsional intellekt bilan bevosita bog‘lab, rahbarlik samaradorligi nafaqat aql, balki hissiy boshqaruv qobiliyatlariga ham tayanganini ilmiy asoslab bermoqda.

Sharq tafakkurida liderlik tushunchasi ko‘proq axloqiy va ma’naviy me’zonlarga asoslangan. Masalan, Konfutsiy “liderlik avvalo o‘zini tarbiyalashdan boshlanadi” deya rahbar shaxsning axloqiy komilligi jamiyatni boshqarishdagi asosiy omil ekanini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, haqiqiy yetakchi adolat, halollik va mas’uliyat timsoli bo‘lishi kerak. Xitoy falsafasidagi “dao” konsepsiyasi ham liderning tabiiy uyg‘unlik va jamoani muvozanatda ushlab turish qobiliyatiga urg‘u beradi.²

Islom olimlari, xususan, Al-Farobiy “Fozil odamlar shahar” asarida ideal rahbar obrazini chizib, uni adolatli, bilimli, ma’naviy yetuk va xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yuvchi shaxs sifatida talqin etgan. Ibn Sino esa liderlikni shaxsiy kamolot va ijtimoiy burchni uyg‘unlashtirish zarurligi bilan bog‘lab tushuntirgan. Sharq falsafasida liderlik nafaqat jamoani boshqarish, balki uni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, jamiyatga uyg‘unlik olib kirish sifatida talqin qilingan.

G‘arb nazariyalarida liderlikning amaliy, tashkiliy va psixologik jihatlari chuqur ishlab chiqilgan. Bu yondashuv menejment, biznes va siyosiy boshqaruvda samarali qo‘llanilmoqda. Sharq nazariyalarida esa liderlikning axloqiy-ruhiy va ma’naviy qirralari kuchliroq yoritilgan bo‘lib, bu jihatlar ayniqsa madaniyat va san’at muassasalarida dolzarbdir. Chunki ushbu sohada rahbar nafaqat tashkilotni boshqarishi, balki estetik va ma’naviy qadriyatlarni jamiyatga singdirishi zarur. Shunday qilib, zamonaviy tadqiqotlarda liderlik fenomenini chuqur anglash uchun

² Konfutsiy. *Suhbatlar va mulohazalar* (Lun Yu). – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – 224 b.



G'arbning ilmiy-empirik yondashuvlari bilan Sharqning axloqiy-ma'naviy qarashlarini uyg'unlashtirish talab etiladi.

Liderlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

Liderlik fenomenini to'liq anglash uchun, avvalo uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish zarur. Chunki liderlik shunchaki boshqaruv uslubi emas, balki insonlar o'rtasidagi muloqot, ta'sirchanlik va jamoaviy munosabatlarni yo'naltiruvchi ijtimoiy jarayondir. Liderlikning muhim psixologik jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Kommunikativlik – lider o'z fikrlarini aniq, tushunarli va ishonarli tarzda ifoda eta olishi, jamoa bilan samarali muloqot o'rnatish bilishi.

Liderlikdagi kommunikativlik — bu rahbarning maqsad, qadriyat va qarorlarni aniq, ma'qbul va samarali tarzda yetkazish qobiliyatidir. U quyidagi tarkibiy elementlardan iborat: og'zaki va yozma nutqning aniqligi, tinglash (aktiv tinglash va empatiya), norasmiy muloqot kanallarini nazorat qilish hamda raqamli kommunikatsiyani samarali boshqarish. Samarali kommunikatsiya liderga jamoa bilan ishonchli aloqani o'rnatish, nizolarni erta aniqlash va hal qilish, shuningdek, auditoriyani (ijodkorlar, tomoshabinlar, donorlar) jalb etish imkonini beradi. Madaniyat va san'at muassasasida bu — repertuar kontsepsiyasini ijodiy jamoaga tushuntirish, kuratorlik qarorlarni asoslash, tomoshabinlar va homiylar bilan muloqotda brend-hikoyani yetkazishda namoyon bo'ladi. Xodimlar va ishtirokchilar qoniqishi so'rovlari, xabarlarining tushunarliliigi bo'yicha indikatorlar va muloqotda yuzaga kelgan noto'g'ri tushunishlarga qarab vaziyatga baho berish va tahlil qilish buning amaliy ko'rinishida ishlashimizga imkon bo'ladi.

2. Motivatsiya berish qobiliyati – jamoa a'zolarini umumiy maqsadlarga yo'naltirish, ularni rag'batlantirish.

Motivatsion jihatlari — liderning jamoani ichki va tashqi motivatsiya orqali ilhomlantirish qobiliyatidir. Uning tarkibiy elementlari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin: maqsadni mazmunli qilish (vision), muvaffaqiyatni tan olish va mukofotlash, rivojlanish imkoniyatlarini yaratish (mentoring, trening), erkinlik va



avtonomiya berish hamda jamoaviy ruhni shakllantirish. Bu jihatlar madaniyat va san'at tashkilotida motivatsiya ijodkorlarga erkin ijodiy muhit berish, tomoshabinlar bilan aloqani kuchaytirish orqali ijodiy natijalarni oshirish, va ijodiy ishlarning ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlab turish orqali amalga oshiriladi.

3. Mas'uliyat va tashabbuskorlik – lider o'z zimmasiga javobgarlik olishga tayyor bo'lishi va yangilikka intilishi.

Tashkiliy (organizatsion) jihatlar — liderning tashkilot strukturasi rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, jarayonlarni muvofiqlashtirish va ishlash mexanizmlarini yaratish qobiliyatidir. U strategik rejalashtirish, vazifalarning delegatsiyasi, loyiha boshqaruvi, ichki nazorat va monitoring, hamda tashqi manbalar (homiylar, grantlar) bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Madaniyat muassasasida bu — festival yoki ko'rgazma dasturini samarali tashkil etish, san'atkorlarning shartnomalari va ijodiy muddatlarni boshqarish, konservatsiya va eksponatlarni saqlash protokollarini ishlab chiqish orqali namoyon bo'ladi. Muhimi — strukturaviy tartib kreativlikni bo'g'ib qo'ymasligi kerak; ya'ni rahbar “yetarli strukturani” ta'minlab, ijodiy erkinlik uchun sharoit yaratishi zarur. Loyiha muddatlariga rioya qilinishi, byudjetga moslik, rol va mas'uliyatning aniq belgilanishi uning qanday darajada amaliyotga tadbiiq qilinayotganini anglatadi.

4. Innovatsion fikrlash – mavjud muammolarga yangicha yechim taklif qilish.

Innovatsion fikrlash – bu mavjud muammolarga yangicha yondashuv topish, ilgari qo'llanmagan usullarni qo'llash va jamoani yangilik sari yo'naltira olish qobiliyatidir. Psixologik nuqtayi nazardan, bu xususiyat liderning tafakkur moslashuvchanligi, ijodkorligi va strategik qarashlarga ega ekanini ko'rsatadi.

Liderlikda innovatsion fikrlash quyidagilarni anglatadi:

- muammolarni yangicha ko'rish;
- mavjud resurslardan samaraliroq foydalanish;
- risklarni boshqarish orqali yangi g'oyalarni tatbiq qilish;
- jamoani o'zgarishlarga tayyorlash va rag'batlantirish.



5. Jamoani birlashtirish qobiliyati – bu liderning eng muhim ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan biri bo‘lib, u odamlarni yagona maqsad sari yo‘naltirish, hamjihatlikni ta‘minlash va ichki nizolarning oldini olish ko‘nikmasini anglatadi. Bunday qobiliyatga ega lider jamoaning har bir a‘zosini umumiy tizimning muhim bo‘lagi sifatida ko‘radi, ularning kuch va imkoniyatlarini uyg‘unlashtiradi.

Asosiy jihatlari:

1. Ijtimoiy-emotsional uyg‘unlikni yaratish – lider jamoada do‘stona va hamkorlik muhiti shakllantiradi, ijobiy kayfiyat va o‘zaro ishonchni ta‘minlaydi.

2. Umumiy qadriyatlarni shakllantirish – jamoa faqat moddiy manfaat emas, balki ma‘naviy qadriyatlar va umumiy missiya atrofida birlashadi.

3. Nizolarni boshqarish – har qanday guruhda turlicha qarashlar bo‘lishi tabiiy.

4. Liderning vazifasi – ziddiyatlarni konstruktiv yo‘l bilan hal qilish va jamoani tarqoqlikdan asrashdir.

5. Hamjihatlik va motivatsiya – lider birlashgan jamoa orqali natijalarni yuqori darajaga olib chiqadi, har bir ishtirokchi o‘zini umumiy muvaffaqiyatning muhim qismi deb his qiladi.

Shunday qilib, liderlik shaxsning individual sifatlari bilan bir qatorda, uning jamoadagi ijtimoiy o‘rni, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishdagi funksiyasi bilan ham belgilanadi. Umuman olganda, bu jihatlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq: kommunikativlik motivatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi, tashkiliy jihatlari esa motivatsiyani amaliy natijaga aylantirish imkonini beradi. Emotsional intellekt va ijtimoiy sezgirlik samaradorlikni oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Konfutsiy. *Suhbatlar va mulohazalar* (Lun Yu). – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – 224 b.
2. Forobiy Abu Nasr. *Fozil odamlar shahri*. – T.: Sharq, 1993. – 256 b.
3. Ibn Sino. *Donishnoma*. – T.: Fan, 1981. – 304 b.



4. Weber M. *Xo'jalik va jamiyat* (Economy and Society). – M.: Progress, 1990. – 808 b.
5. Stogdill R.M. *Handbook of Leadership: A Survey of Theory and Research*. – New York: Free Press, 1974. – 613 p.
6. Burns J.M. *Leadership*. – New York: Harper & Row, 1978. – 530 p.
7. Bass B.M. *Leadership and Performance Beyond Expectations*. – New York: Free Press, 1985. – 256 p.

Internet saytlari

www.ziyo.net